

## Hakamlik sndlari dagi dadil qadamlar

Mamlakatni yangilash, boshqacha aytganda, modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlardan biri sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirishdir. Bu yo'lidi muhim odim va omil bevosita hakamlik sndlaring faoliyati bilan bog'liq. Ana shu maqsadning va harakatning ifodasi o'rnda O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sndlari to'g'risida"gi Qonuni 2006-yil 16-oktyabrda qabul qilinib, 2007- yil 1-yanvardan kuchga kirgan edi. To'g'ri, bu sohada ham o'ziga yarasha murakkabliklar bo'lganini inkor etish qiyin.



TIQXMMida tashkil etilgan huquqiy-ma'rifiy tadbir xuddi shu masalaga bag'ishlandi. Unda O'zbekiston Hakamlik sndlari assotsiatsiyasi raisi Hamza Xasanovich Mahmudov bilan birga o'rinosarlari Lola Maratovna Babaxajaeva, Shakarov Alisher Narboboevich, Mardiev Asomiddin Xazratqulovichlar ishtiroy etishdi. Tadbirni prorektor R. Choriyev moderator sifatida boshqarib bordi.



Dastavval, Hamza Mahmudovning hakamlik sndlari haqidagi ma'ruzasi tinglandi. U o'z nutqida bugungi kundagi faoliyatning kengqamrovli ekani borasida so'z yuritib, hakamlik sudining xo'jalik sndlari va fuqarolik ishlari bo'yicha sndlardan farqli jihatlari xususida o'z mulohazalarini bildirdi.



Shuningdek, hakamlik sudida ishlar tezkorlik bilan hal etilishi, asosiy maqsad taraflarning kelishuviga yo'naltirilishi hamda taraflar o'rtasidagi hamkorlik saqlab qolinishi, hakamlik muhokamasining maxfiyligi qonun bilan kafolatlanishi, tomonlar jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilmasligi, hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirishi borasida ham to'xtab o'tdi. Davrada ishtiroy etgan fakultet dekanlari va professor o'qituvchilar o'zlarini qiziqtirgan mavzuga oid savollarni berib to'liq javob olishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**